| <i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>                                                                                                              |      |
| Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari .....                                                                       | 986  |
| <i>Abdushukurova Mushtariy</i>                                                                                                                               |      |
| Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari .....                                                                                   | 991  |
| <i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>                                                                                                                         |      |
| Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts .....                                                                        | 997  |
| <i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>                                                                                                                            |      |
| Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....                                                                                     | 1000 |
| <i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>                                                                                                                     |      |
| Hisor ekspeditsiyasi tarixi .....                                                                                                                            | 1004 |
| <i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>                                                                                                                    |      |
| Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....                              | 1007 |
| <i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>                                                                                                                       |      |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati .....                                                                 | 1011 |
| <i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>                                                         |      |

|                                                                                                                                                         |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process .....                                                                              | 1014 |
| <a href="#">Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</a>                                                                                                         |      |
| The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English .....                                                                     | 1019 |
| <a href="#">Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</a>                                                                              |      |
| Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati .....                                                    | 1025 |
| <a href="#">G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi</a>                                                                           |      |
| Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari .....                                                                                    | 1028 |
| <a href="#">Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</a>                                                                           |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari .....                                | 1031 |
| <a href="#">Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</a>                                                                                                        |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish .....                | 1034 |
| <a href="#">Iminova Z. B.</a>                                                                                                                           |      |
| Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati .....                                                      | 1038 |
| <a href="#">Inayatova Nargisa Nishonboyevna</a>                                                                                                         |      |
| O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish .....                                                 | 1044 |
| <a href="#">Kalmuratovna Venera Sultanova</a>                                                                                                           |      |
| Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari .....                                                      | 1049 |
| <a href="#">Kamola Abdullayeva</a>                                                                                                                      |      |
| O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari .....                                                                            | 1052 |
| <a href="#">Karimov Orif Obloqul o'g'li</a>                                                                                                             |      |
| Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati .....                                                                                      | 1055 |
| <a href="#">Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</a>                                                                                                      |      |
| Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers .....                                                          | 1060 |
| <a href="#">Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</a>                                                                                                       |      |
| Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri .....                                                                                      | 1063 |
| <a href="#">Makulov Shuxratjon Zokirovich</a>                                                                                                           |      |
| Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar .....                                                                                | 1067 |
| <a href="#">Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</a>                                                                          |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish .....                                                              | 1072 |
| <a href="#">Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</a>                                                                                                     |      |
| Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi .....                               | 1075 |
| <a href="#">Mansurova Umida Mansur qizi</a>                                                                                                             |      |
| Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari .....                                   | 1081 |
| <a href="#">Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</a>                                                                                                      |      |
| Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati .....                                                                                                  | 1084 |
| <a href="#">Murodov Nozimjon Olimjonovich</a>                                                                                                           |      |
| Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari .....                                                             | 1088 |
| <a href="#">Nafasova Jamila Turg'un qizi</a>                                                                                                            |      |
| Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish .....                                                              | 1093 |
| <a href="#">Najmiddinova Gulnoza Odilovna</a>                                                                                                           |      |
| Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi .....                         | 1097 |
| <a href="#">Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</a>                                                                                 |      |
| Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli .....                                                   | 1101 |
| <a href="#">O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</a>                                                                                                    |      |
| Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari .....                                                                                           | 1104 |
| <a href="#">Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</a>                                                                                                        |      |
| Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari .....        | 1108 |
| <a href="#">Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</a>                                                                       |      |
| Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari ..... | 1112 |
| <a href="#">Ostanov Askarjon Nuriddinovich</a>                                                                                                          |      |



|                                                                                                                                               |      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| “Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari .....                                                          | 1117 |
| Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna                                                                                                           |      |
| Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari .....                                                                            | 1121 |
| O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova                                                                                                                |      |
| Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..                                | 1126 |
| Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna                                                                                   |      |
| Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .                                    | 1131 |
| Rahmatova Barnogul Karimjonovna                                                                                                               |      |
| Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...                         | 1138 |
| Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi                                                                                                           |      |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi .....                                                   | 1143 |
| Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi                                                                                                            |      |
| Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....      | 1146 |
| Roziqova Malika Olimovna                                                                                                                      |      |
| Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish .....                                       | 1149 |
| Sattorov Boburbek Zokirovich                                                                                                                  |      |
| Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..                                | 1153 |
| Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova                                                                                                             |      |
| Ta’lim tizimini moliyalashtirish .....                                                                                                        | 1156 |
| T. Seydemetov                                                                                                                                 |      |
| Integrating Sports Terminology Into English Teaching .....                                                                                    | 1161 |
| Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna                                                                                                           |      |
| Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish..... | 1165 |
| Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li                                                                                                                  |      |
| The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence .....                                                   | 1173 |
| Utambetova Arzayim                                                                                                                            |      |
| Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi .....                                               | 1176 |
| Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li                                                                                                     |      |
| Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari .....                                                        | 1180 |
| Xuramova Farangiz Uchqun qizi                                                                                                                 |      |
| Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati .....                                                                                   | 1185 |
| Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna                                                                                                              |      |
| Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis .....                                      | 1189 |
| Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova                                                                                                             |      |
| Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi .....                                                                        | 1195 |
| Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li                                                                                                            |      |
| Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....                                       | 1200 |
| Пак Светлана Викторовна                                                                                                                       |      |
| Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2 .....                                                                | 1204 |
| Сагиндилов Алишер Алеутдинович                                                                                                                |      |
| Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе .....                                                              | 1208 |
| Ширбачеева Гульчебра Шакировна                                                                                                                |      |
| Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся .....                                                          | 1211 |
| Яхшиева Мехринигор Шавкатовна                                                                                                                 |      |
| Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri .....                                                                 | 1216 |
| Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich                                                                                                            |      |
| Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish .....                          | 1219 |
| Bannayev Qosimjon Qodirjonovich                                                                                                               |      |



# TALABALARINI ILMIY TADQIQOT ISHLARIGA YO'NALTIRISH TEXNOLOGIYASI

Zikriyayev Faxriddin Ma'mur o'g'li

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi, dotsent v.b.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta'lim jarayoniga yo'naltirilishi, ularda mustaqil dunyoqarash, ijodiy tafakkur va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari tahlil etiladi. Mustaqil ta'lim nafaqat fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, balki talabaning bo'lajak mutaxassis sifatida global professionallik talablariga mos kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** talaba, mustaqil ta'lim, texnologiya, mustaqil ish, ilmiy tadqiqot, rivojlantirish, metod.

**Abstract:** This article examines modern technologies for guiding students toward independent learning, fostering autonomous thinking, creative reasoning, and research competencies. Independent study is emphasized as a key factor not only for developing subject-related knowledge and skills but also for preparing future specialists who meet contemporary global professional standards.

**Key words:** student, independent learning, technology, independent work, scientific research, development, method.

**Аннотация:** В данной статье анализируются технологии направленного формирования у студентов навыков самостоятельного обучения, развития независимого мировоззрения, творческого мышления и исследовательских компетенций. Подчеркивается, что самостоятельное обучение является важным фактором не только в усвоении знаний и умений по конкретной дисциплине, но и в подготовке будущего специалиста, отвечающего современным требованиям глобального профессионализма.

**Ключевые слова:** студент, самостоятельное обучение, технология, самостоятельная работа, научное исследование, развитие, метод.

## KIRISH

Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi globallashuv sharoitida har bir talaba nafaqat ma'lum bir fanga oid nazariy bilimlarni egallashi, balki o'z kasbiy sohasida mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tahliliy tafakkur va ilmiy izlanish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Chunki zamonaviy mehnat bozori talab qilayotgan kompetensiyalar tarkibida ijodkorlik, innovatsion fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, ilmiy asoslangan tahlil yuritish kabi qobiliyatlar ustuvor o'rin egallaydi. Talabalarni ilmiy izlanishlarga yo'naltirish texnologiyasi esa aynan shu kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik adabiyotlarda "mustaqil ta'lim" tushunchasi turlicha talqin etilgan bo'lib, ayrim manbalarda u olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash jarayoni sifatida, boshqalarda esa talabaning boshqariluvchi, lekin erkin fikrlash imkoniyatiga ega bo'lgan faoliyati sifatida talqin etiladi. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, mustaqil ta'lim talabaning tashabbusi, mas'uliyati va individualligiga asoslanadigan ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda shaxsning bilim olishdagi ichki motivatsiyasi yetakchi o'rin tutadi. Ushbu jarayonda talaba o'zining intellektual salohiyatini namoyon etadi, mavjud ilmiy muammolarni mustaqil anglaydi va ularni yechish yo'llarini izlashga intiladi. Shuning uchun mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish talabalarda ilmiy dunyoqarash, izchil mantiqiy fikrlash va tizimli tahlil ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassis tayyorlash, ilmiy izlanishlarga keng imkoniyatlar yaratish kabi masalalar ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa pedagoglardan talabalarning mustaqil ta'li-

mini ilmiy izlanishlar bilan uzviy bog'lash, ularni innovatsion fikrlashga undash, ilmiy kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalarni qo'llashni talab etadi.

Talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish texnologiyasi pedagogik jarayonning faol shakli bo'lib, unda talaba nafaqat bilim oladi, balki bilimni yaratadi, tajriba o'tkazadi, tadqiqot olib boradi, tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etadi. Bunday jarayon talabalarda tanqidiy fikrlash, muammoni ko'ra bilish, nazariy bilimlarni real vaziyatlarga qo'llay olish, ilmiy terminologiya bilan ishlash, ilmiy matn yaratish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shuningdek, mustaqil tadqiqotlar orqali talaba o'zining kasbiy qiziqishlarini aniqlaydi, iqtidor va salohiyatini namoyon etadi, ijodiy qarashlarini rivojlantiradi.

Oliy ta'lim jarayonida talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etishning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik mahorati, metodik ta'minot, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari hamda yaratilgan muhitga bog'liq. Xususan, interfaol metodlar, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim, kreativ yondashuv, ilmiy to'garaklar, kichik guruhlarda ishlash, mustaqil izlanish topshiriqlari kabi texnologiyalardan foydalanish talabaning ilmiy faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu usullar talabaning dars jarayonidagi passiv ishtirokchisidan ilmiy faoliyatning faol sub'ektiga aylanishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim nafaqat mazkur fanni chuqur o'rganishga, balki talabaning kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Talabaning ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishining oshishi, fikrlash doirasining kengayishi, turli ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish ko'nikmalarining shakllanishi uning kelajak faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda har bir sohada innovatsiyalar tez sur'atlarda rivojlanayotgan bir paytda, zamonaviy mutaxassis ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi, tadqiqot olib borish usullarini bilishi hamda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qila olishi talab etiladi. Shuning uchun talabalarning ilmiy izlanishga yo'naltirilishi oliy ta'limning uzviy va majburiy tarkibiy qismiga aylangan.

Demak, talabalarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish texnologiyalarini chuqur o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish hamda samaradorligini oshirish nafaqat talaba shaxsiy rivojiga, balki oliy ta'lim sifatining yuksalishiga, jamiyatning ilmiy-intellektual salohiyatining oshishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ilmiy izlanishlar orqali o'z ustida ishlaydigan, kreativ fikrlay oladigan va innovatsion g'oyalar yaratadigan zamonaviy mutaxassisni tayyorlashning asosiy omillaridan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda "mustaqil ish" atamasi har xil talqin etiladi:

- olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli (Pedagogika fanidan izohli lug'at)<sup>1</sup>;
- boshqariladigan jarayon, u asosan o'qitish (dasturlar hajmidagi bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash, takomillashtirish) va mutaxassisni tayyorlash mazmunini tashkil etuvchi tegishli ko'nikma va malakalarni egallash maqsadlariga xizmat qiladi (I.L. Naumchenko)<sup>2</sup>;
- kerakli ma'lumotlarni izlash, bilimlarni egallash va ulardan o'quv, ilmiy va kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanish (S.I. Arxangelskiy)<sup>3</sup>;
- belgilangan maqsadga muvofiq muayyan faoliyatni tashkil etish va bajarish vositasi (P.I. Pidkasiy);
- maqsadga muvofiq, nisbatan erkin bilim faoliyati namoyon bo'ladigan, tashqi yordam va ko'rsatmalarsiz harakat qilish qobiliyati (O.I. Juravleva, L.I. Mixaleva);
- subyektning anglangan holda bilimlarni mustaqil ravishda egallashga yo'naltirilgan ongli faoliyatiga asoslangan individual qobiliyatlarni rivojlantirish va o'zini o'zi tashkil etish, o'zini o'zi tarbiyalash hamda o'z-o'zini takomillashtirish uchun barqaror motivatsion va irodali istakka asoslangan shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga qaratilgan faoliyat (N.A. Eroshina)<sup>4</sup>;
- bilish faoliyatini shaxsiy tashabbus bilan qulay vaqtda tashkil etiladigan shakli (M. Fedorova, L. Yakushina)<sup>5</sup>;

1 Хасонбоев Ж., Тўракулов Х. ва бошқалар. Педагогика фанидан изоҳли лугат. – Т.: Фан ва технологиялар, 2009. – 355 б.

2 Наумченко И.Л. Самостоятельный учебный труд студентов. – Саратов: Изд-во Саратов. ун-та, 1984. – С.8.

3 Пидкасистый, П.И. Самостоятельная деятельность учащихся в обучении: учеб. пособие / П.И. Пидкасистый, Б. Коротяев. – М: Просвещение, 1978. – С. 45.

4 Ерошина, Н. А. Самостоятельная учебная деятельность студентов педвуза // Педагогическое образование и наука. - 2005. -№5. - С. 59 - 63.

5 Федорова М., Якушина Л. Модель организации внеаудиторной самостоятельной работы // Высшее образование в России. – 2007. – № 10. – С. 89.



- o'quvchilarning shaxsiy faoliyatini rivojlantirish, bilim motivatsiyasini shakllantirish va uni professionallikka aylantirish orqali kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan ichki motivatsion faoliyat (E.N. Truxchenko)<sup>6</sup>.

Mustaqil ta'lim har doim o'z-o'zini tarbiyalash va bilimlarni oshirishdir. Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning faol ijodkorlikka yetkazish uchun o'qituvchi rahbarligidagi talaba mustaqil ishlari muvaffaqiyatli tashkil etish, talabalarda muammolarni shakllantirish hamda ularni hal etish usullarini tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish, maqbul natijalarni topish va ularning to'g'riligini isbotlashni bilishga oid texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba mustaqil ishlashi jarayonida qator muammolarni hal etishni o'rganmas ekan, bu sohani chuqur egallay olmaydi. Turli xildagi o'quv materiallari, kitoblar, darsliklar bir vosita bo'lib, sohani faqat kitob yoki o'qituvchidan o'rganib bo'lmaydi. Sohadagi va kundalik turmushda uchraydigan muammolarning yechimlarini qidirish ustida mustaqil izlanish talab etilar ekan, talabalarda fikrlar va g'oyalar rivoji ularning kreativlik qobiliyati in'ikosidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzu doirasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilish jarayonini o'rganishga qaratilib, ma'lumotlar asosan kuzatuv, suhbat va anketalar orqali yig'ildi. Kuzatuvlar davomida talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi faolligi, ijodiy yondashuvi va ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishi o'rganildi. Suhbatlar yordamida o'qituvchilarning talabalarga rahbarlik qilish tajribasi, to'garaklar faoliyati va motivatsiya omillari bo'yicha ma'lumotlar olindi. Anketa savollari esa talabalar tomonidan OTM fanlarini o'zlashtirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalari, kreativ yondashuv darajasi va ilmiy izlanishlarga tayyorligi haqida tasavvur berdi. Yig'ilgan ma'lumotlar mazmuniy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va statistik qayta ishlash usullari orqali tahlil qilindi, natijalarda talabalarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning samaradorligi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, turli ta'lim muassasalarida o'qiganliklari hamda shaxsga xos individual xususiyatlari sababli talabalarga OTM fanlarini o'qitishda talabalarning oliy ta'lim davrigacha OTM fanlarini o'zlashtirgan bilim darajalari turlicha bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qish davomida talabalarning OTM fanlarini o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari yagona tizimga keltiriladi. Shu bilan birga, mazkur faoliyatiga salohiyatli talabalar maxsus maqsadli dastur asosida ilmiy rahbar boshchiligida faoliyat olib borar ekan, o'zlarining ichki intellektini namoyon etish imkoniga ega bo'ladilar. Bu faoliyat davrida talabalar mushohada yuritishga o'rganadilar, kreativ yondashuv asosida o'z ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradilar. Natijada tengdoshlaridan va jamoa o'rtasida alohida e'tiborga sazovor bo'ladilar. Ularda sog'lom raqobat muhitiga asoslangan quvonish, o'z faoliyati natijalaridan g'ururlanish va ruhiy qoniqish hissi vujudga keladi. Talabalarda o'z aqliy imkoniyatlari va salohiyatiga ishonch kuchayadi, ilmiy izlanishga ishtiyoq ortadi.

Amerikalik olimlarning fikriga ko'ra, kreativlik uchun oltita o'ziga xos, ammo o'zaro aloqador quyidagi manbalar mavjud bo'lishi lozim: intellektual qobiliyatlar, bilim, fikrlash uslubi, shaxsiy xarakter xususiyatlari, motivatsiya va atrof-muhit<sup>7</sup>. Xususan, talabalarda kreativlikni rivojlantirish uchun qulay muhitni hosil qilish juda muhim. Dars mashg'ulotlaridan tashqari, ya'ni mustaqil ta'lim jarayonida erkin, ijodiy fikrlash muhitini yaratishda turli to'garaklarning o'rni katta.

Zamonaviy ta'lim talabalaridan kelib chiqqan holda, oliy o'quv yurtlarida talabalarga OTM fanlarini o'qitish maqsadida OTM fanlari to'garaklari tashkil etilmoqda. Jumladan, Guliston davlat universiteti "Yosh faylasuflar maktabi", Nizomiy nomidagi TDPU, FarDUlarda "Yosh filologlar" to'garaklari tashkil etilgan. Qayd etilgan oliy o'quv yurtlarida yosh filologlar to'garaklarining nizomi va ish rejalari oliy o'quv yurtining ilmiy kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

"Yosh filologlar" to'garagining asosiy maqsadi ham aynan talabalarga OTM fanlarini o'qitishni erkin tarzda uyushtirishdan iborat.

Asosiy vazifalari esa quyidagilardan tashkil topadi:

- yosh mutaxassis va talabalarning mustaqil tarzda OTM fanlarini chuqurroq o'rganishiga imkoniyat yaratish;
- amaliy mashg'ulotlar, davra suhbatlari, seminar-treninglar vositasida talabalarning intellektual va kreativ salohiyatini oshirish;
- talabalarning OTM fanlarini o'rganish asosida o'zlashtirilgan bilimlarini hayotga tatbiq etish uchun qulay sharoitlar yaratish.

<sup>6</sup> Трущенко Е. Н. Основные направления организации самостоятельной работы // СПО. - 2007. - № 10. - С. 26-28.

<sup>7</sup> Попов А.И. Инновационные образовательные технологии творческого развития студентов. Педагогическая практика: учебное пособие. - Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО "ТГТУ", 2013. - С.15.



Yuqoridagi kabi uyushmalar talabalarga maqsadli faoliyati bilan shug'ullanish uchun har tomonlama ko'maklashadi. Ularning o'z yo'nalishlarini belgilab olishlari, ta'limning trening, amaliy mashg'ulot shakllari hamda ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar vositasida ularga o'z intellektual salohiyatlarini oshirish, fan yutuqlaridan foydalangan holda OTM fanlarining nazariy asoslarini yoritish, o'z bilimlari natijalarini hayotga tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish ayniqsa muhimdir.

Oliy o'quv yurtlari kafedralari tarkibida tashkil etilgan fan to'garaklari odatda kurs va fakultet talabarini jalb etgan holda, ma'lum bir dastur asosida faoliyat yuritadi. Davr va ijtimoiy buyurtma asosida kafedra qoshida qayta tashkil etilgan fan to'garaklarining faoliyati esa, asosan, keng qamrovli muammolarni hal etishga qaratilib, bu ishga umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim bosqichlari o'quvchi va talabalari, hattoki pedagogik xodimlari ham keng jalb etiladi.

Ta'lim muassasasi tarkibida tashkil etilgan bunday to'garaklar talabalarning maqsadli faoliyatiga jalb etilishi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotimiz davomida shunday hamkorlik aloqalarini rivojlantirishning faol yo'nalishlarini aniqlash va rivojlantirish maqsadida Guliston davlat universiteti talaba-yoshlari o'rtasida OTM fanlari o'rganish faoliyati sohasidagi o'zaro hamkorlik holati o'rganildi.

Tajriba shuni ko'rsatdiki, fan to'garaklarini davr va ijtimoiy buyurtma talablaridan kelib chiqqan holda qayta tashkil etish, ularda istiqbolga yo'naltirilgan modulli o'qitish mazmuni tarkibida muayyan fanning yutuqlarini kengroq ifodalash masalalariga e'tibor qaratish va yosh filologlarning diqqatini ushbu masalaga jalb etish zarur. Masalan, Guliston davlat universiteti falsafa fakulteti "OTM fanlari" kafedrasida qoshida tashkil etilgan "Yosh faylasuflar" kichik maktabi tarkibida "OTM fanlarini o'qitish metodikasi" to'garaklari birlashtirilgan bo'lib (rahbari o'qituvchi X. Mamatova), unga OTM fanlari faniga oid maxsus savolnoma asosida universitet talabalari tanlab olinadi. "Kichik maktab"ning to'garaklaridan afzalligi shundaki, unda mashg'ulotlar noan'anaviy yo'sinda: bahs-munozara, didaktik va rolli o'yinlar hamda noan'anaviy tarbiya darslari ko'rinishida amalga oshiriladi. Bu yerda talabalarda OTM fanlarini o'rgatish metodikasiga oid ko'nikmalar shakllantiriladi, kreativ yondashuv asosida kichik maktabning har bir a'zosi o'zini namoyon eta olishi uchun to'liq shart-sharoit va erkinlik yaratiladi.

O'z-o'zini mustaqil rivojlantirish jarayonida shaxsiy nuqtai nazarni o'stirish, o'z mavqeini aniqlash, sohaga oid shaxsiy tajribalarni oydinlashtirish, o'z faoliyatini tatbiq etish, o'zining ijodkorligini namoyish etish va o'z-o'zini tarbiyalash kabi omillar kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'limda o'qituvchining asosiy vazifasi talabalarga o'z ustida ishlash uchun ma'lum sharoit yaratib, berilgan topshiriqlarni bajarishga motivatsiya berishdir. Buning uchun har bir ta'lim yo'nalishi talabalari uchun kreativ qobiliyatlarini namoyish qilishlari uchun qulay topshiriqlar va usullar tanlash katta samara beradi. Jumladan, tajriba jarayonida san'atshunoslik yo'nalishidan to'garakka jalb etilgan talabalar uchun Merayya Kerining "Qahramon" (Mariah Carey "Hero") qo'shig'ini ijro etish va unga mos sahna ko'rinish yaratish topshirig'i berildi. Shundan so'ng talabalar qo'shiq matni ustida "SCAMPER" usulidan foydalangan holda ishlab, yangi g'oyalarni shakllantirdilar:

- substitute – almashtirish;
- combine – birlashtirish;
- adapt – moslashtirish;
- modify/magnify – modifikatsiyalash;
- put to other uses – boshqacha qo'llash;
- eliminate – bartaraf qilish yoki minimumga o'zgartirish, qisqartirish;
- rearrange/reverse – boshqacha qo'llash, qayta ishlash.

Psixologiya yo'nalishi talabalari uchun mos ravishda mustaqil tarzda "Psixologga tashrif" mavzusida ishlash topshirig'i berildi. Bunda psixolog vazifasini bajarayotgan talabalarga "Design Thinking" usulidan foydalangan holda murojaatchilarning muammolariga yechim topish vazifasi qo'yildi:

- empatiya (yoki emotsional intellekt) – bu o'zini muammosini bayon qilgan insonning o'rniga qo'yib ko'ra olish va uning hissiyotlari, istaklari, g'oya va hatti-harakatlarini tushunish;
- aniqlash (fokuslash) – empatiya bosqichida yig'ilgan ma'lumotlarni masalaning yechimini topish uchun aniqlashtirish;
- g'oyalarni shakllantirish (g'oyalar generatsiyasi) – g'oya va yechimlar ishlab chiqish;
- prototiplashtirish – muammoni hal qilishi mumkin bo'lgan istiqbolli g'oyalarning moddiy modelini yaratish;
- test o'tkazish – ilgari surilgan farazlarni taqdim etish hamda ularning yaroklliligini tekshirish.



Tajriba bu kabi kreativ usullardan foydalanish talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga samarali xizmat qilishini ko'rsatib berdi. Bunda nafaqat mustaqil ravishda OTM fanlarini o'rganishga qiziqtirish, balki o'zaro hamkorlikdagi faoliyat asosida yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

To'garaklarda mustaqil ta'lim asosida talabalar bilan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar majmui OTM fanlari o'rganish texnologiyalariga asoslanar ekan, talabalar bilimi va ularning ijodkorlik qobiliyatini oshirishlari uchun etakchi mutaxassis F. Zikriyayev tomonidan yaratilgan lug'at o'ziga xos xususiyatga ega.

Bugungi kun oliy ta'lim tizimida OTM fanlarini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad ham talabalarda kreativ yondashuv asosida OTM fanlarini o'qitish darajasini oshirish va metodik asoslarini shakllantirishdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mustaqil ta'lim asosida OTM talabalarini kreativ yondashuvlar asosida ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish kasbiy bilimlar tizimini, bilim va kasbiy faoliyat usullarini o'zlashtirish vositasi, ijodiy faoliyat va kasbiy mahorat hamda ko'nikmalarni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hallmann R. J. The necessary and sufficient conditions of creativity // Creativity: its educational implications. – N.Y.; L.; Sidney, 1967. – P. 16.
2. Torrance E. P. The nature of creativity as manifested in its testing // R. Sternberg. The nature of creativity. – Cambridge: Cambridge Press, 1988. – P. 43–75; Torrance E. P. Growing up creatively gifted: A 22-year longitudinal study // Creative Child and Adult Quarterly, 1980. – Vol. 5. – P. 148–170.
3. Маслоу А. Мотивация и личность. – СПб.: Евразия, 1999. – 478 с.
4. Guilford J. P. The nature of human intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.; Гилфорд Дж. П. Три стороны интеллекта // Психология мышления / Под ред. А. М. Матюшкина. – М.: Прогресс, 1965. – 534 с. – С. 433–456.
5. Роджерс Н. Творчество как усиление себя // Вопросы психологии, 1990. – № 1. – С. 164–168.
6. Богомягленская Д. Б. Психология творческих способностей: учебное пособие. – М.: Академия, 2002. – 320 с.; Она же. Интеллектуальная активность как проблема творчества. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского ун-та, 1993. – 172 с.
7. Брушлинский А. В. Психология мышления и проблемное обучение. – М.: Знание, 1983. – 96 с.; Он же. Проблемы психологии субъекта. – М.: РАН, Институт психологии, 1994. – 109 с.
8. Выготский Л. С. Психология. – М.: ЭКСМО-ПРЕСС, 2000. – 1008 с.; Он же. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – 93 с.
9. Дружинин В. Н. Психология общих способностей. – М.: Лантерна; Вита, 1995. – 149 с.
10. Пономарёв Я. А. Психология творчества. – М., 1999. – 304 с.; Он же. Психология творчества: перспективы развития // Психологический журнал. – Т. 12. – № 1. – 1991. – С. 38–50.
11. Ray M. Simpson. Creative imagination // The American Journal of Psychology. – Vol. 33, 1922. – P. 234–243. URL: <https://archive.org/details/jstor-1414133/page/n1/mode/2up>
12. Торощина К. А. Современные исследования проблемы креативности в зарубежной психологии // Вопросы психологии, 1998. – № 4. – С. 123–132.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.